



O'ZBEK TILIDA UNLILARNING MOSLASHUVI HAQIDA

Feada M. Samadbek

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

fada.mfada@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11186709>

Annotatsiya. Bu maqolada hozirgi o'zbek adabiy tilidagi unlilar haqida so'z yuritilgan va ushbu tilda uning uyg'unligi borligi yoritilgan. Turli manbalardan foydalanilib, unli singarmonizmlar qiyoslandi. Unlilar uyg'unligi tarixiy grammatika bilan bog'liqlikda o'rganilgan. Ayniqsa, chig'atoy tilining boshlang'ich davrlari va undan keyingi tadqiqotlardagi unlilar moslashuvi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *hozirgi o'zbek tili, turk tili, chig'atoy-qipchoq tillari, so'zlashuv tili, fonetika, unlilar uyg'unligi.*

Abstract. The article discusses vowels in the modern Uzbek literary language and demonstrates the presence of vowel harmony. It compares vowel harmonies using various authoritative sources. Additionally, the article explores how vowel harmony is evidenced through the development of historical grammar. In particular, it provides information on the adaptation of vowels during the early stages of the Chagatai language and in later research.

Keywords: *Current Uzbek language, Turkish language, Chagatai-Kipchak languages, colloquial language, phonetics, harmony of vowels.*

Bugungi kunda boshqird, yoqut va qirg'iz tillarida unlilar moslashuvi bor. Turkman turkchasining so'zlashuv tilida lab unlilari uyg'unligi kuzatiladi. "Ozarbayjon, tatar, qozoq va uyg'ur shevalarining so'zlashuv tillarida ko'rinadigan lab uyg'unligi, yozma tilda tilshunoslik nuqtayi nazaridan kerakli darajada e'tiborga olinmayapti. Bugungi o'zbek yozuvida unlilar moslashuvi qoidasi buzilgan". [Shoabdurahmonov, 1980:72]. Ushbu asarda o'zbek tilidagi fonetik singarmonizm yetarli darajada tadqiq etilmaganligi aytiladi. Yana bir tomondan S.Chag'atoyning fikricha, bugungi o'zbek tilidagi tadqiqot va grammatika kitoblarida, umuman, "moslashuv qoidasi" yo'qligi ta'kidlanadi [Çağatay 1972, 41]. Darhaqiqat, Chig'atoy bu fikr butun o'zbek tiliga tegishli emasligini aytadi. Chag'atoy so'zlarini shunday davom ettiradi: "Unli buzilishi va eski adabiy tildan kirib kelgan arab va fors lug'atini hisobga olmaganda o'zbek tili chag'atoy-qipchoq tillarida rivojlangan



umumiy yozma tildan bir necha affiks va yuklamalar bilangina farq qiladi” [Çağatay, 1972: 72]. Sharqiy turkchada ko‘rilgan affiks mos kelmasligi haqida Kemal Eraslan “Xorijiy so‘zlarda paydo bo‘lgan bu holat yozuvchilar tomonidan vaqt o‘tishi bilan turkiy so‘zlarga tarjima qilingan bo‘lishi kerak. Turkcha so‘zlarga aralash affikslarning kiritilishiga qarab turkiy so‘zlarda aralash talaffuz borligini o‘ylash mutlaqo noto‘g‘ri bo‘ladi” [Eraslan, 1970: 91] deyishi bilan aslida mavjud fonema moslashuvlariga ishora qiladi.

O‘zbek tilidagi tovush tizimining kelib chiqishini o‘zbek tiliga asos bo‘lgan chig‘atoy tilidan izlash kerak. Ma’lumki, chig‘atoy tilida undoshlar haqida turlicha fikrlar bo‘lmasa ham, unlilar haqida turlicha fikrlar mavjud. K.K.Yudahin, XV, XIX, XVI asr asarlarida unlilar moslashuvi qoidalariga amal qilinmaganligi, bugungi kundagi unlilar moslashuvi buzilganligi va bu buzilish shahar nutqlariga yaqin ekanligini aytib, o‘sha davr asarlarida olti unli borligini aytadi. Yanos Eckmann keltirgan misollarda chig‘atoy tilida unli moslashuvlarini qabul qilinganini ko‘ramiz: “tökken, kesken, yatgan, baskan, tilegü, algu, satguchi, bar etgüchi, urguchi, aymak, ichish” [Eckmann, 1962: 51-52]. “Turkcha otlarda yaxlitlash yo‘q. Turkcha so‘zlarda til moslashuvi ancha kuchli”. [Tarjimasi; Akalın, 1979: 287]. Yana bir maqolasida Eckmann chig‘atoy tili haqida ma’lumot berib, turkiy tilda o‘rnashib qolgan fonematik uyg‘unlikning chig‘atoy tilida ham borligini misollar bilan izohlaydi [Eckmann, 1958: 121]. Shcherbak, Borovkov, Rustamov, Doniyarov, Shukurov kabi olimlar Neva1 davrida unli moslashuvining mavjudligini qabul qiladilar. Biroq bu davrdagi tovushlar va unlilarning soni bo‘yicha har xil fikrlar mavjud [Shukurov, 1992: 22-25].

Borovkov	a, e, è, i, o, u, ü
Shcherbak	a, è, ı, i, o, ö, u, ü
Rustamov	a, ā, è, i, î, o, ö, u, ü
Doniyarov	a, [ā], e, è, ı, i [i:], o, ö, u, ü
Shukurov	a, e, è, ı, i, o, ö, u, ü

Ko‘rinib turibdiki, bu olimlarning birlashadigan mushtarak jihati katta unlilar moslashuvini ochib beruvchi yo‘g‘on va ingichka unlilardir; kichik unlilar moslashuvining ta’siri shundan iboratki, yumaloq unlilar o‘xshashdir. Farqlar turli fonetik qiymatlarning "e" va "a" harflarida bo‘lib, unlilar moslashuviga ta’sir qilmaydi.

Bugungi o‘zbek tilida unlilar a, e, è, i, [ı], [ö], o, u, [ü] tarzida ko‘rsatilgan. Biroq matnga kiritilmagan, qavs ichiga kiritilgan unlilar tarjima alifbosi



[transkripsiya]da ishlatiladi [Shaabdurahmanov, 1980: 54]. Qavs ichida ko'rsatilgan unlilar maqolaga kiritilmaganligi sababli maqolada ovoz moslashuvi haqida gapirish mumkin emas. O'zbek yozma tilining fonetik asosi sifatida Toshkent shevasi tanlangan. Toshkent shevasi – Qarshi, Buxoro va Samarqand kabi fors tilining ta'siri eng ko'p ko'rilgan shahar shevalaridan biri. Fors tilining ta'siri bilan bu shevalarning unlilari kamayadi [to'qqiz o'rniga olti unli]. Unli tovushlarning kamayishi unlilar moslashuvining buzilishiga olib keladi. Natijada ingichka va yo'g'on unlilar [a>e; ɪ>i; o>ö; u>ü] o'rtasida o'zgarishlar sodir bo'ladi [Cirtautas, 1976: 77]. Boshqa tomondan, Farg'ona vodiysi shaharlarida [Farg'ona, Marg'ilon, Xo'qand, Namangan, Andijon] qarluq shevalari o'g'uz va o'zbeklarning qishloq shevalariga o'xshaydi. Hozir ham Farg'ona vodiysida yashovchilar shahardan tashqarida yashaydi va forslarning ta'siri kam.

XIX asr oxirida Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Hudayar, Zariy kabi davr adiblari asta-sekin chig'atoy davri tili va adabiy an'analardan uzoqlasha boshladilar. Fors va arab tillarini biladiganlar emas, hamma tushunadigan yozma adabiyot zarur edi. Ular, birinchi navbatda, O'rta Osiyo xalq og'zaki ijodiga asoslangan she'rlarini do'mbra va qo'puz jo'rligida kuylaydigan baxshilarga murojaat qilishadi. Ularning ijodi esa chig'atoy Turkiylari davri tugab, yangi o'zbek adabiy tili shakllana boshlaganligidan darak beradi [Cirtautas, 1976: 77].

Bu davr yozuvchi va ziyolilari 1917-yilgacha va undan keyin ikki qarashdan birini tanlashga majbur bo'ldilar: yangi adabiy til yo to'liq so'zlashuv o'zbek tiliga asoslangan edi. Har ikki qarash bir xil qiyinchilikka duch keladi: qaysi mintaqadagi o'zbek tili bunga xizmat qilishi kerak edi? O'zbek shevalari ko'p. O'zbek shevalarining hozirgi xaritasi O'rta Osiyo turkiy shevalarining kichik versiyasiga o'xshaydi [Cirtautas, 1976: 78].

20-yillarda o'zbek yozuviga rahbarlik qilgan Fitrat o'zbek turkiy tilida fonetik moslashuvning mavjudligini tan oladi va shunday deydi: "Turk tilining barcha tarmoqlarida mavjud bo'lgan qalinlik va ingichkalik moslashuvi o'zbek turkiy tili uchun ham amal qiladi va ikkiga bo'linadi. Bu moslashuv eski qo'lyozmalarda bo'lgani kabi qishloqda yashovchilar orasida ham juda keng tarqalgan qoidadir. Turk tilida qalinlik va ingichkalik moslashuvi yo'q, deyish to'g'ri emas" [Fitrat, 1930b: 7].

1921-yillarda unlilar soni to'qqiz yoki olti bo'lishi kerakligi haqida munozara va yig'ilishlar o'tkazilar ekan, arab harflarini zamonaviylashtirish harakatlari yashirincha olib borildi [Cirtautas, 1976: 78]. 1923-yilda yangi ochilgan sovet maktablarida o'rganishni osonlashtirish uchun olti unlili tuzatilgan arab alifbosi



joriy etildi. 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan 1-turkologiya qurultoyida lotin alifbosi qabul qilindi. Bu alifboda olti yoki to'qqiz unli bormi, degan muhokamalar yana boshlanadi. Nihoyat 1929-yil may oyida Samarqandda chaqirilgan qurultoyda turkiy tilning unli moslashuvini ta'minlovchi to'qqiz unli umumiy qabul qilinadi.

Shunday urinishlarga qaramay bu adabiy til uzoq davom etmaydi. 1934-yilda "alifboni isloh qilish" nomi bilan unlilar soni beshtaga [a, è, i, o, u] qisqartirilganligi sababli unlilar moslashuvini ko'rsatishning iloji bo'lmas holga keladi.

Fitrat o'zbek tilida a, e, è, ı, i, o, ö, u, ü tarzida to'qqiz unli borligini qabul qiladi [Fitrat, 1930: 8]. U o'z asarlarida unli moslashuvlarga "Fitrat so'zlashuv tilida undoshlar moslashuvi mavjudligi haqida gapiradi. Qattiq undoshlar so'z oxiridagi ch, k, p, s, sh, t harflaridan keyin kelishini, lekin ular matnda ko'rsatilmaganligini aytadi [N. 11]. Ushbu bayonotga qaramay u matnlarning ko'p qismlarida "t-d" ni ajratadi. Fitrat va o'sha davr shoirlarining ba'ziları bu farqga amal qilganlarini ko'ramiz: Tüzüshte [N.3], achtır [S.35], chektirme [S.35], okuttur [S.35], yashattır [S.35], bezettir [S.35], körsettir [S.35], salıstılar [H], çıqtı [M], oqushtı [M], g'urbette [F], ketti [M], yazdır [S.35], bildir [S.35], sindir [S.35], kandır [S.35], mindir [S.35]." amal qiladi. Bu moslashuvlarni o'sha davr lotin yozuvlarida yaqqol ko'rish mumkin:

a) so'zning negiz va o'zaklarida tovush moslashuvi: kirgizmek [N. 14], qoshumcha [N.3], oqurlık [S.18], körerlik [S.18], oturarlı [S.18], yazarlıq [S.18], oqug'an [S. 17], ketken [S.17], kelgen [S.17], tashkan [S. 17], yahshıgına [S.16], kettegine [S.16], azgın [S.16], keskin [S.16], kızgın [S.16], ölmegür [S.16], ötkür [S.16], toymagur [S.16], bilimsiz [S.15], atsız [S.15], edepsiz [S.15], boyavsız [S.15], tıshkı [S.15], qıshgı [S.15], Rüşche [N.18], Tatarcha [N. 18], kitapcha [S.14], yılğ'acha [S.4], yüzche [S.4], minglerche [S.4], kelinche [S.14], kelinçek [S.14], külğü [S. 13], yazgu [S. 13], tilev [S. 13], saylav [S.13], terim [S.13], sachım [S.13], oqush [S.13], yazışh [S.13], bilish [S.13], bilmeslik [S. 13], yazmaslık [S.13], oynunchaq [S.12], pıchaq [S.12], belenchek [S.12], oraq [S.12], elek [S.12], emzek [S.12], achg'ıch [S.12], uchgıch [S.12], süzgich [S.12], chalgı [S.12], sipirgi [S.12], kelmek [S.13], qachmaq [N.17], körinmek [S.37], küchlemek [S.38], kelishmegensiz [S.35], yazışhmaymış [S.35], kutulmay [F], tüşürgen [K.15], tökülgenler [K.19], kallıkrak [N.13], köprek [S. 12], tetikrek [K.10], yaxshıları [M], mingbashılık [M], körmek [F], Majnunluk [Za.].

b) bugungi kirill alifbosidagi matnlarda ko'rsatilmagan va bir shaklli sifatida qabul qilingan affikslar lotin alifbosidagi matnlarda tovush moslashuviga kirib, bir shaklli bo'lmagani ko'riladi: tog'rısıda [N.2], ornıda [N.13], chag'ıda [Z], geplerde



[N. 17], sheklide [N. 16], undan [N.17], köprükden [K.22], birden [N.17], ölüкке [K.26], süfette [N.18], hükümetke [H], yazarga [N.17], atga [N.17], körürge [N.16], yüziğe [K.10], üyinge [Z], bashg'a [M], bashıg'a [F], elige [F], vatanning [F], ölükning [K.10], ishning [N.17], oynıng [N.8], oylarning [N.14], kushning [N.8], chumchukni [N.10], oynı [N.8], okni [H], birgelikni [N.16], kökni [N.14], palavnı [N.14], kitapni [N.17], qorqısından [K.27], qoshumchası [N.8], belgisi [N.16], birisi [M], dushmanı [H], esbabını [H], yazganı [N.17], körgeni [N.17], oqudım [N.17], aldı [F], saldı [M], gepirdim [N.17], shunday [K.27], munday [K.10], bütünley [N.2].

c) yozma tilda “-ki” qo‘shimchasi ham tovush moslashuviga kirgani ko‘rinadi: qolingızdag‘ı [N.2], kechegi [S.15], yuqarıdag‘ı [N.S], kısımdag‘ı [ET.7], burungi [S.15], burungi [Z], sendegi [H].

Fitrat arab harfi bilan yozilgan matnlarda yo‘g‘on va ingichka moslashuvni ajratishda yo‘g‘on va ingichka unlilardan tashqari “q, x, g” kabi yo‘g‘on undoshlar va “k, g” kabi ingichka undoshlar ham yo‘g‘onlik va ingichkalikni aniqlovchi ekanligini misollar bilan tavsif qiladi. Arab harfi bilan yozilgan yozuvlarda yo‘g‘onligi va ingichkaligi bo‘lmagan “sın, min” kabi so‘zlarning yo‘g‘onlik va ingichkalik farqi o‘zidan keyin kelgan qo‘shimchalar yordamida yasaladi: “minek, minmek, sınıq, sınmaq” [Fitrat, 1930b: 11].

Fitratning yozishicha, o‘zbek tiliga tashqaridan kirib kelgan so‘zlarning aksariyati unlilar moslashuviga kirgan: Erep [S.3], kaidaları [N.1], maydanga [N.2], sabıt [N.2], müellimligi [N.2], meshhür [N.2], ihtımal [N.2], devam [N.2]” melümet [N.3], mejhbüri [N.8], saddacha [N.4], hereket [N.8], nezeriye [N.8], lekin [N.8], mısıl [N.9], tesnif [ET.3], keblevi [ET.3], javap [K.10], ımla [S.3], vakıt [S.4], latıncılık [S.4], jazıba [N.13], ıfada [N.29], shairlar [N.S], xabar [İK], kabul [İK], kalam [İK], makala [İK]. Chet eldan kelib chiqqan ba’zi so‘zlar: diyonet [İK], pervone [İK]. bela [İK], lale [İK] kabi unli moslashuviga kirmagan. Fitrat “ularni unlilar moslashuviga bo‘ysundirsak, yaxshi bo‘lardi”, [Fitrat, 1927b: 11] deya imlo birligi uchun misollar sonini moslashuvdan kamaytirish muhimligini ta’kidlaydi.

Fitrat katta unlilar moslashuvidan keyingi ikkinchi masala lab o‘xshashligi ekanligini ta’kidlaydi. Lab o‘xshashligini dumaloq unlilik bir bo‘g‘inning [o, ö, u, ü] o‘zidan keyingi kelgan bo‘g‘inlarni bo‘ysundiruvchi bo‘lishidir [otun, orun, tütün, bütün], tarzida tushuntirgandan keyin rasmiy va norasmiy majlislarda bu masala muhokama qilinganini aytadi. Uning aytishicha, avgust [1925-yil] konferensiyasida bu moslashuvni qo‘shimchalarda emas, negizlarda ko‘rsatish kerak, degan qaror qabul qilingan. Bu qarorning noto‘g‘ri ekanligini bildirgan Fitrat, bolup, yörüp so‘zlarini bolup, yürüp sifatida yozishni aytadi. U o‘z asarlarida bu



qarorga amal qilishga harakat qiladi: Tüzülgen [N.9], toldurguchi [N.10], togru [N.2], tejribe [N.2], qoyulgan [N.2], körüledir [N.3], turush [N.3], qoyulish [N.3], tüzükre [N.13], uzun [K.9], körünip [K.10], tükül- [K.11], og'ulları [K.16], qoyush [K.8], buyurın [K.18], qorqutdı [K.20], qoshulıp [K.20], tüşünip [K.27], ölgünche [K.32], bog'ulıp [K.32], qoshuq [S.4], bulut [S.10], ottuz [S.18], külgü [S.13], Oqush [S.13], Yügürge [K.10]. Fitrat: “ ‘ölmüş, öldürülmüş mü’ so‘zini va ‘ning, nı’ so‘zlarini lab o‘xshashligiga bo‘ysundirdik, ‘bunu, unung, unung qutusu’ deb qabul qildik.” [Fitrat, 1927b: 11] deya u fleksiyon qo‘shimchalarida haqiqatda mavjud bo‘lgan lab o‘xshashligiga bir necha misol keltiradi. Matnlarda bu qarashini qo‘llaganligini ko‘rsatadigan hech qanday misolni uchratmadik. Bu misollardan ma‘lum bo‘lishicha, aslida o‘zbek tilida qalinlik-ingichkalik moslashuvi bilan lab o‘xshashligigina mavjud.

Hozirda o‘zbek tilida va ayrim shahar shevalarida unli moslashuvi buzilgan bo‘lsa ham, ko‘pincha shevalarda va so‘zlashuv tilida ham unli moslashuvi saqlanib qolgan [Shaabdurahmanov, 1980: 72], [Ercilasun, 1991: 1074].

Umuman, o‘tish davrlarida ko‘rilgan bu tur yangi tashkil etilgan yozma til uchun tabiiy qabul qilinishi kerak. Unlilar moslashuvining chig‘atoy davrida ma‘lum bo‘lgan va 1920-1930-yillargacha buzilmaganligi yozuvlarda ko‘rsatilgan bo‘lib, unlilar uyg‘unligini qayta tiklash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akalın Mehmet. Tarihi Türk Şiveleri. – Ankara: 1979. – B. 287.
2. Çağatay Saadet. Türk lehçeleri örnekleri, II-Yaşayan Ağız ve Lehçeler. – Ankara: 1972. – B. 41-72.
3. Cirtautas Iise Laude. Son Elli Yılda Edebi Özbekçenin Gelişmesi Üzerine. – Ankara: Türk Kültürü Araştırmaları, XV/1-2, 1976. – B. 77-78.
4. Eckmann Janos. Çağatay Dili Hakkında Notlar. – Ankara: Belleten, 1958. – B. 121.
5. Eckmann Janos. Çağatay Edebiyatının Son Devri [1800-1920]. – Ankara: Belleten, 1963.
6. Eckmann Janos. Çağataycada İsim-Fiiller. – Ankara: Belleten, 1962. – B. 51-52.
7. Erarslan Kemal. Doğu Türkçesinde Ek Uyumsuzluğuna Dair. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi, Edebiyat fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi XVIII, – 1970. – B. 91.



8. Ercilasun Ahmet B. [Komissiya raisi]. Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri Sözlüğü. – Ankara: 1991. – B. 1074.
9. Fitrat Abdurahim. En Eski Türk Edebiyatı Numuneleri. – Taşkent: Maorif va Oqutguchi, 1927a.
10. Fitrat Abdurahim. Imlo Konferensiyasi Munosabati Bilan. – Toshkent: Maorif va Oqutguchi. – 1927b. – B 11.
11. Fitrat Abdurahim. Kiyamet [Latin harfli]. – Taşkent: 1936.
12. Fitrat Abdurahim. Nehv 4-nashr [Latin harfli]. – Toshkent: 1930a.
13. Fitrat Abdurahim. Serf 6-nashr [Latin harfli]. – Toshkent: 1930b. – B. 7-11.
14. Shaabdurahmanov Sh., Askerova M., Haciev A., Resulov İ., Daniyerov H. Hazirgi O‘zbek Adabiy Tili. – Toshkent: 1980. – B. 54-72.
15. Shukurov Shamsuddin. Eski O‘zbek Tili Unlilari, O‘zbek Tili va adabiyoti. – Toshkent: S.3, – 1992. B. 22-25.

Qisqartmalar:

- ET : En Eski Türk Edebiyatı Numuneleri
F : Furqat [bu va keyingi misollar “Eckmann 1963”dan olingandir]
H : Hudayar
İK : Imlo Konferensiyasi Munosabati
K : Kiyamat
M : Muqimi
N : Navh
S : Sarf
Z : Zavki
Za : Zori